

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 5 706,8 mln. AQSh dollarini va o'sish sur'ati 102,2 %ni, jumladan 1 858,2 mln. AQSh dollarini – eksport operatsiyalari yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,0 %ni, 3 848,6 mln. AQSh dollarini – import operatsiyalari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,7 %ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida  
viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)**

	<i>yanvar-dekabr</i>		<i>2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>5 584,5</b>	<b>5 706,8</b>	<b>102,2</b>

*shu jumladan:*

MDH davlatlari	2 652,4	2 497,4	94,2
boshqa davlatlar	2 932,1	3 209,4	109,5
<b>Eksport</b>	<b>2 042,4</b>	<b>1 858,2</b>	<b>91,0</b>

*shu jumladan:*

MDH davlatlari	837,7	826,0	98,6
boshqa davlatlar	1 204,7	1 032,2	85,7
<b>Import</b>	<b>3 542,1</b>	<b>3 848,6</b>	<b>108,7</b>


*shu jumladan:*

MDH davlatlari	1 814,7	1 671,4	92,1
boshqa davlatlar	1 727,4	2177,2	126,0


## Tashqi iqtisodiy faoliyat

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida  
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, %da**

**2023- yil yanvar-dekabr**



**2022- yil yanvar-dekabr**



**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida  
viloyat eksport-importi tarkibi**

	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>		<i>O'tgan yilga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>91,0</b>
paxta tolasi	0,01	0,01	77,3
oziq-ovqat mahsulotlari	13,0	13,3	93,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	5,3	5,6	96,2
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,2	0,5	2,7 m.
qora va rangli metallar	52,3	49,3	85,8
mashina va uskunalar	3,2	3,3	94,1
xizmatlar	0,6	0,3	42,3
boshqalar	25,4	27,7	99,0
<b>Import tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>108,7</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	22,2	19,5	95,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	11,8	11,7	107,8
energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,0	6,5	174,6
qora va rangli metallar	10,1	9,2	99,1
mashina va uskunalar	26,7	33,1	134,7
xizmatlar	0,3	0,2	101,9
boshqalar	24,9	19,8	86,3

**Tashqi iqtisodiy faoliyat**



Eksport tarkibida tovarlar 99,7 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (49,3 %), boshqa turdagи tovarlar (27,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,6 %), mashina va uskunalar (3,3 %) shuningdek, xizmatlar (0,3 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### **Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi**

(mln. AQSh dollarasi)

**2022- yil**  
**yanvar-dekabr**

**2023- yil**  
**yanvar-dekabr**



**Paxta tolasi**

**Oziq-ovqat mahsulotlari**

**Kimyo mahsulotlari va buyumlar**

**Energiya manbalari va neft mahsulotlari**

**Qora va rangli metallar**

**Mashina va asbob-uskunalar**

**Xizmatlar**


**Boshqalar**

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**


Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (33,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (19,5 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,7 %) hamda boshqa mahsulotlar (19,8 %) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi  
(mln. AQSh dollar)**

**2022- yil  
yanvar-dekabr**



**2023- yil  
yanvar-dekabr**



Oziq-ovqat mahsulotlari

Kimyo mahsulotlari va buyumlari

Energiya manbalari va neft mahsulotlari

Qora va rangli metallar

Mashina va asbob-uskunalar

Xizmatlar

Boshqalar

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida  
katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi**


	<i>Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida</i>	<i>O’tgan yilga nisbatan % hisobida</i>
Xitoy	26,6	135,3
Rossiya Federatsiyasi	22,2	96,9
Qozog‘iston	14,9	89,3
Turkiya	7,6	57,3
Braziliya	4,1	85,4
Italiya	2,7	2,4 m.
Germaniya	2,0	124,9
Singapur	2,2	2,7 m.
Belarus	1,9	106,7
Qirg‘iz Respublikasi	1,5	121,3
Tojikiston	1,8	93,8
Afg‘oniston	1,0	78,2
Vyetnam	0,7	2,3 m.
Koreya Respublikasi	0,8	93,6
AQSH	0,6	183,8
Belgiya	0,7	3,5 m.
Litva	0,6	91,5
Eron Respublikasi	0,6	103,7

**Tashqi iqtisodiy faoliyat**


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'izton, Turkiya, Braziliya, Italiya va Germaniya davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 80,1 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'izton, Turkiya, Braziliya, Italiya va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da**

### **Eksport**



### **Import**




### **Tashqi iqtisodiy faoliyat**

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,8 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 %ga kamaydi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 56,2 %ni tashkil qildi (2022- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,5 %ga teng bo'lgan).

**Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining  
tashqi savdo aylanmasi  
(mln. AQSh dollari)**



So'ngi yillarda mamlakatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2023- yil yanvar-dekabr oylarida jami 221,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 135,8 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 108,6 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 175,0 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 96,2 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 25,0 %ga ko'paygan.

Shuningdek, 46,3 ming tonna meva va rezavorlar 39,6 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,7 %ni tashkil etdi.

#### 2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar

46,3 ming  
tonna  
39,6 mln.  
AQSH dollarari

Uzum

26,2 ming  
tonna  
20,2 mln.  
AQSH dollarari

Yeryon-  
g'oqlar

0,5 ming  
tonna  
0,8 mln.  
AQSH dollarari

Sabzavotlar

175,0 ming  
tonna  
96,2 mln.  
AQSH dollarari

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 135,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagि ulushi 7,3 %ni tashkil etdi.

## Tashqi iqtisodiy faoliyat